



# 1-TO'PLAM

**Ta'limda raqamli texnologiyalarni  
tadbiq etishning zamonaviy  
tendensiyalari va rivojlanish omillari**

## **ILMIY KONFERENSIYA**



**Digital technologies in education  
modern application  
trends and development factors**

## **SCIENTIFIC CONFERENCE**

**2022 y**

«*Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*» mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (27 yanvar 2022 yil) – T.: Rishton XTB 2022

Ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plamida Respublikamiz o’qituvchilari, soha mutaxasislari, ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar, talabalarning ilmiy maqolalari o‘rin olgan.

**Taqrizchilar:**

**M.J.Saidova** – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

**I.S.Mirzarahimova** – Farg’ona viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Rishton tumani  
XTB mudiri

**Muharrir:**

**A.B.Vahobov** – “Ustozlar uchun” respublika pedagoglar jurnali tahririysi  
rahbari

**Tashkilotchilar:**

Inobatxot Mirzraximova – Rishton tumani XTB mudiri

Umida Barzieva – Farg’ona viloyat xalq ta’limi boshqarma metodisti

Tursunxo’ja Abduraxmonov – Rishton tumani Faxriylar kengashi Raisi

Erkinjon Abdullaev – Rishton tumani Kasaba uyushmasi raisi

Mohinur Saidova – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent

Sharifaxon Xakimova – Farg’ona tumani 4-maktab matematika fani  
o’qituvchisi

Adxamjon Vahobov – “Ustozlar uchun” respublika pedagoglar jurnali  
rahbari

*To‘plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyiligiga  
mualliflar mas’uldirlar.*

Ushbu to‘plam Farg’ona viloyati xalq ta’limi boshqarmasi Rishton tumani XTB kengashining 2022 yil 27 yanvardagi 12-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

<b>Maqola mavzusi, maqola muallifi</b>	<b>Maqola sahifasi</b>
<b>“How I work on my professional development as a teacher of English and as a user of the English language?”</b> <b>Hamida Yuldasheva Yuldashbayevna</b> <b>Qunduzxon Yuldasheva Yuldashbay qizi</b>	3-7
<b>ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA TABIAT RAMZLARI TALQINI.</b> <b>Sharipova Raxima Muxtorovna</b>	8-13
<b>BOSHLANG’ICH SINFDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</b> <b>Abduxalilova Shaxlo G‘iyosova</b>	15-17
<b>INSON HUQUQLARINIG KAFOLATI SIFATIDA AXBOROT XAVFSIZLIGI</b> <b>Akbarova Shavkatbek qizi Madinabonu</b>	18-20
<b>BIOLOGIYA TADQIQOT METODLARI, BIOLOGIYANING MUAMMOLARI VA UNING O’RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI.</b> <i>Ibragimova Nargiza Xojiakbarovna</i>	21-23
<b>КЕШ-СУГДНИНГ ИЛК ЎРТА АСРЛАРДАГИ СИЁСИЙ ВА МАДАНИЙ МАРКАЗИ</b> Бобоҷонов Беҳруз Қардӯ ПИ ўқитувчиси	24-27
<b>FRANSUZ TILIDA KO‘P UCHRAYDIGAN FE’LLAR</b> <b>Narmetova Norgul Kodirovna</b>	28-32
<b>UMAR HAYYOM, BEDIL VA GA`FUR G`ULOM IJODIDAGI MUSHTARAKLIK</b> <b>Ne’matova Sarvinoz Qamariddinovna</b>	34-37
<b>INGILIZ TILINI O’RGANISHNING HOZIRGI ZAMONAVIY TA’LIMDAGI MUHIM AHAMIYATI.</b> <b>Hamrayeva Nafisa Ziyodullayevna</b>	38-41
<b>JORJ BERNARD SHOUNING “PIGMALION” ASARIDA QAHRAMONLAR TALQINI.</b> Ro‘zimurodova Zarifa G‘afurovna Narziyeva Madina Sanjar qizi	42-45
<b>KO’RSATKICHLI TENGLAMALARNING BA’ZI KO’RINISHLARI VA ULARNI YECHISH</b> <b>Hasanov Bayodilla Qahhorovich</b>	46-53

Azamov Toxirjon Toshtemir o'g'li	
ZAMONAVIY DUNYODA CHET TILINING O'RNI To'xtayeva Go'zal Ashirboyevna	146-147
TIL O'QITISH MAZMUNI VA MATERIALLARI Xojiyeva Iroda Zokirjon Qizi	148-152
XORIJIY TIL DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH METODI Babayeva Vasilisa Tashpulatovna	153-158
TARIX FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHI Yodgora Osimova Umarjon qizi	159-163
KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING MAQSADI, VAZIFALARI VA ASOSIY TAMOYILLARI Zilola Obidova Bahromovna	164-167
АКТИВИЗАЦИЯ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА СОВРЕМЕННОМ УРОКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА Болтабаева Нодира Сафаровна	168-174
MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA BOLALARINI TALIM JARAYONIGA SUBEKT SIFATIDA FAOLIYATINI TAMINLASHNING TURLI YO'LLARI. PRIMOVA ZULAYHO	175-178
REPRESENTATIVE FEATURES OF LINGUISTIC MANIPULATION IN THE COMMUNICATIVE SITUATION Hafizov Sarvar Boborajab o'g'li	179-183
ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДАГИ ОРНИТОНИМЛАРНИНГ ЛЕКСИК ПАРАДИГМАСИ Н.Махмудова	184-186
МЕДИЦИНСКИЕ ПРЕДМЕТЫ Адолат Нуримматова	187-189
МЎМИН ЁЛҒОНЧИ БЎЛМАЙДИ Хамроқулов Нуриддин	190-194
ПЕДАГОГИКА В ЖИЗНИ ПОДРОСТКОВ. Отахонов Нурбек	195-197
ТАЛАБАЛАРДА ИҚТИДОРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЧУҚУРЛАШТИРИЛИБ УТИЛАДИГАН УҚУВ ФАНЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ	198-200

## **XORIJIY TIL DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH METODI**

**Babayeva Vasila Tashpulatovna(BuxDU)**

Tabiiy yo'naliishlarda chet tili  
kafedrasi katta o'qituvchisi  
email: [vasila.babayeva@bk.ru](mailto:vasila.babayeva@bk.ru)

Hali mamlakatimiz mustaqillikka erishmasdanoq davlatimiz birinchi rahbari I.A.Karimov yoshlarni zamonaviy fan-texnikaning, umuman, ilm-fanning yutuqlaridan bahramand qilmasdan turib, ularga yuqori malakali ixtisos egalari bo'lib yetishishga sharoit tug'dirmay turib, Respublikaning xalq xo'jaligini, sanoat ishlab chiqarish sohalarini tubdan o'zgartirib bo'lmasligini ta'kidlab o'tgan edi<sup>33</sup>.

Bugungi kunda ta'lim sohasiga, chet tillarni o'qitish va o'rgatishga alohida e'tibor qaratilayotganligi pedagoglarimiz oldiga yanada ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. Yurtimizning birinchi rahbari I.A.Karimov quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edi:"...zamonaviy fan taraqqiyotining asosiy yo'nalishi jahon miqyosida chiqqan tillarni, ayniqsa ilg'or texnikaviy taffakur ifodalanayotgan tillarni bilishni taqozo etadi. Biz ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarni o'rganishni butun choralar bilan rag'batlantirishimiz lozim"<sup>34</sup>.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

<sup>33</sup> To'xtapo'lat Risqiev. Barkamol avlod orzusi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000 y.

<sup>34</sup> I.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". "O'zbekiston", Toshkent, 1997y.

Ma'lumki, xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzlusiz ta'lim tizimi tashkil etadi. SHu sababli bu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratish darkor<sup>35</sup>.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo'ydi va qator chora-tadbirlar ko'rishni: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni joriy etishni, yangi o'quv rejalar, dasturlari, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni; o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi. Muhtaram yurtboshimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda "Bizni tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftihorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat ehtirom ifodasi deb bilamiz" deya ta'kidlaganlaridek, sog'lom, mustaqil fikrlovchi farzandlarni, bugungi kun talabiga javob bera oladigan yangi avlodni tarbiyalash bizning asosiy vazifamizdir deb ta'kidlaganlar. Hozirgi yoshlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha har tomonlama yetuk bilimga ega bo'lishi uchun suv xo'jaligi tizimda mavjud ishlab chiqarish tashkilotlarining tajribali mutaxassislari bilan maqsadli kadrlar tayyorlashda "Ustoz – shogird" tizimida talabalarni jalb qilish quyidagi yutuqlarga erishiladi:

1. O'z sohasi bo'yicha korxonadagi yetuk mutaxassislarga shogird etib belgilanish orqali shu korxonadagi ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
2. Ustoz tomonidan kasbga qiziqtirish va yo'llash ishlari olib borilishi natijasida kasb sirlari va boshlang'ich malakani egallaydilar.
3. Talabalar kafedra tomonidan belgilangan jadval orqali o'qishdan ajralmagan holda sohaga doir amaliy ish, tajriba va ko'nikmalarini shakllantirib, o'qishni

<sup>35</sup> A.A.Mirolyubov, I.V. Rahmanov, V.S.Tsetlin tahriri ostida "O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi, T. "O'qituvchi", 1974 yil. 38-41 –B.

tugatganlaridan so'ng sinov muddatlarisiz ishlab chiqarish korxonalarida ishlashlari uchun zamin yaratadilar va shu kabilar inobatga olinadi.

Qaysi bir chet tilini o'rganar ekanmiz, o'rganilayotgan tilning o'qitish metodlarini mukammal o'rganmog'imiz va mukammal egallamog'imiz lozim. Hozirgi davr chet tili darslarida tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rganishni o'qitish metodlari asosida o'tishni talab etadi. Chunki o'qitish metodlari asosida o'tilgan dars o'z samarasini beradi. O'qitish metodlari chet tilidagi so'zlarni tez va oson egallahsga, so'z boyligining oshishiga olib keladi. Bizga ma'lumki ta'limga tashkil etish jarayonida erishilgan yutuqlar, tajribalar asosini metodlar tashkil etadi. Chet tilini o'rganish murakkab jarayon. Nemis tili darslarini tashkil etish jarayonida ham metodlar ayniqsa muhim rol o'ynaydi. Chet tili o'qituvchisining darsni tashkil etish jarayonida turli metodlardan foydalanishi darsning samarali bo'lishiga asosdir. Bizga ma'lumki, har bir o'tilishi kerak bo'lgan dars reja asosida olib boriladi. Izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsul faoliyatdir. O'qituvchi nemis tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmasdan, mavzu ustida izlansa, faol ijodiy faoliyat ko'rsatsa, o'zlashtirish jarayoni ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'lim ana shunday izlanish va ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Bu metod shaxs va uning intellektual faolligini har tamonlama rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Muammoli ta'lim tushunchasi pedagogik adabiyotlarda garchand keyingi yillarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, ammo izlanuvchanlikka asoslangan o'qitish g'oyasi ming yildan ortiqroq tarixga ega. Bilish-izlanish mahsuli ekanligini Sharq mutafakkirlari alohida qayd qilgan edilar. Abu Ali idn Sino (980-1037) o'zining "Donishnoma" asarida qiyinchiliklarni yengish orqali bilimlarni egallahning afzalligini ko'rsatgan edi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida muammoli o'qitish metodlaridan foydalanib ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Muammoli o'qitish metodlar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'quvchilar egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va

tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bu esa o'quv jarayonini zamonaviylashtirishga, ya'ni o'qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan metodik jarayonga aylantirishga urinish mumkin degan fikrga olib keladi.

Ta'limda muammoli o'qitish metodlaridan foydalanishga alohida e'tibor berilayotganining asosiy sabablari qo'yidagilar:

**Birinchidan**, muammoli o'qitish metodlari asosidagi darslarda shaxsnı rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish imkoniyatining kengligidadir.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

**Ikkinchidan**, muammoli o'qitish metodlari o'quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondoshuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

**Uchinchidan**, muammoli o'qitish metodi asosidagi darsni o'qituvchi olib borish jarayonida o'quvchilarni mavzu yuzasidan muammoga olib kirishi va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo'lган metodik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

**To'rtinchidan**, muammoli o'qitish metodlari yangi vositalar va axborot usullarini qo'llashga asoslanganligi sababli, ularning qo'llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishga katta yordam beradi va amalga oshirishni ta'minlaydi. Muammoli o'qitish metodlari asosida o'tkazilgan mashg'ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o'z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o'z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarini o'zлari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham o'quv- tarbiyaviy jarayonda muammoli o'qitish metodlari, interfaol uslublar, inovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Biror bir chet tilinio'rganar ekanmiz, o'rganilayotgan tilning fonetikasi, grammatikasi va leksikasini birgalikda bog'lab o'rganamiz. Nemis tili leksikasi haqida umumiy tushuncha

bermoqchiman. Nemis tili leksikasi deyilganda nemis tili lug'at boyligi tushuniladi. Nemis tilini o'rganish jarayonida qancha ko'p so'z boyligini egallagan bo'lsa, nemis tilida erkin muloqat qila oladi, erkin fikrlaydi. Bunga erishish uchun nemis tili darslarini muammoli o'qitish metodlari asosida tashkil etish ijobiy samara beradi. Chet tillarni o'qitishda faqat birgina metod-mashqlar bilan chegaralanishi kerak emas. Bu o'rinda ijodiy ishlar ham mashqdir, lekin u ijodiy ishligicha qoladi. O'qituvchi tomonidan o'qitishning xilma-xil o'qitish metodlarini qo'llash hozirgi davrning eng muhim talabidir. O'qituvchining chet tillarini o'qitishda o'quvchilar bilan ishlash usullarini aniqlash uchun shu fanni o'qitish jarayoniga e'tibor bermoq lozim. Nemis tilini o'qitish jarayoni bir-biri bilan mahkam bog'langan, ya'ni nutq malakasini o'stirish va til materialini o'zlashtirishdan iborat. Taraqqiyot shiddati bilan hayot tarzimizga kirib kelayotgan bir-biridan murakkab texnika va texnologiyalar farzandlarimiz ongi shuuridanham mustahkam o'rin egallamoqda. Bunday vaziyatda o'quvchiga biror yangi bilim berish, uni o'qish va izlanishga o'rgatish uchun o'qituvchidan juda katta mahorat talab qilinishi bor gap. Tabiiyki, bu jarayon kasbini sevgan, ardoqlagan va ta'bir joiz bo'lsa, o'zini hurmat qilgan har bir pedagogni izlashga, yangidan-yangi pedagogik usul va uslublar, texnologiyalarni o'rgatishga, kashf etishga undamoqda. Tajriba-tadqiqot maydonlarida o'qitish metodlarini qo'llash, samara bergen, ijobiy natijalarga erishtirgan o'qitish metodlarini darslar jarayonida ko'proq qo'llash imkoniyatini beradi. Dars jarayonida zamonaviy metodlarni qo'llash deyilganda, o'quvchilarni faollashtirish, ya'ni, o'quvchini butun dars davomida faol bo'lishini ta'minlash tushuniladi. Xulosa qilishda, huni aytish kerakki, maqsad bugungi ta'lim jarayonini o'qitish metodlari asosida tashkil etish, muammoli o'qitish metodlaridan darslarda foydalanish natijasida ta'lim samaradorligini yuqori bosqichlarga ko'tarishdan iborat.

### **Foydalaniqan adabiyotlar:**

- I. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". "O'zbekiston", Toshkent, 1997y.
2. To'xtapo'lat Risqiev. Barkamol avlod orzusi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2000 y. 34-37 –B.

3. I.A.Karimov“Barkamol avlod-O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”, Toshkent,”Sharq“ nashriyoti 1998 yil. 13-17 –B.
4. Babayev M.T., Babayeva V.T. "Chet tillarini o‘rganishda tarjimaning ahamiyati va roli" - Buxoro “Durdona” nashriyoti-2020y. 348-351.
5. Babaev Mahmud Tashpulatovich USING MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021. 64-67
6. Babayev Maximud Tashpulatovich, Babayeva Vasila Tashpulatovna. Nemis tilini o‘rgatishda maqol, matal va iboralardan foydalanish. Buxoro-2021. 128-131.
7. Бабаева В. Т. Смешанное обучение – образование третьего поколения. International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science Philadelphia, USA. Issue 01, volume 81 published January 30, 2020 622-625
8. Бабаева В.Т. История методов обучения иностранным языкам. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании» Наука. Мысль: электронный периодический журнал 2014 . 3
9. Бабаева В. Т. Некоторые методы обратной связи в обучении и обучении иностранным языкам. Электронное периодическое издание “Экономика и социум” ISSN 2225-1545 № 1(68)- 2020,
10. Babayeva V.T. Mavlonova O’, Ro’ziyeva D.S. IRONY IN DRAMATIC WORKS. International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192
11. Бабаева В.Т.“Деятельность современного учителя в контексте нового парадигмы образования”. Образование и культура. Векторы сотрудничество. Материалы межвузовской научно-теоретического конференции.Челябинск, 2019.Стр. 30-34.



**«Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq  
etishning zamonaviy tendensiyalari  
va rivojlanish omillari»**

**mavzusida o'tkazilgan respublika onlayn  
ilmiy amaliy konferensiya**

# SERTIFIKAT

**BABAYEVA VASILA TASHPULATOVNA**

**«XORIJY TIL DARSLARIDA MUAMMOLI O'QITISH METODI»  
mavzusidagi maqolasi uchun taqdirlandi**

ISBN 978-9943-6663-3-7

9 789943 666337



  
Rahbar: A.B.Vahobov

**16.01.2022**

**Berilgan sana:**